

**MAHTUMQULI, G'AFUR G'ULOM VA ANVAR SUYUN ASARLARIDA MILLIY  
KOLORIT VA QIYOSIY TAHLILI**

**Suvanov Husniddin Norqulovich**

Termiz davlat universiteti. Tadqiqotchi.

*E-mail:* [hsuvanov@tersu.uz](mailto:hsuvanov@tersu.uz) Tel:+998977868805.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.11002398>

*Annotatsiya.* Maqolada Mahtumquli Firog'iy, G'afur G'ulom va Anvar Suyun she'rlari hamda nasrida milliy kolorit ifodalangan. Turkman va o'zbek milliy mentalitetidagi lakuna va realiyalar muvofiqligi. Har qaysi ijodkor ijodida milliy ruhga va milliy xarakter g'oyaviy jihatdan mos ifodalanishi yoritib berilgan.

*Kalit so'z:* Supra, Badiiy adabiyot, xalqonalik, tili, milliy kolorit, milliy ruh.

**NATIONAL COLOR AND COMPARATIVE ANALYSIS IN THE WORKS OF  
MAHTUMQULI, GAFUR GHULAM AND ANVAR SUYUN**

*Abstract.* In the article, the poems of Mahtumquli Firog'iy, G'afur G'ulom and Anvar Suyun, as well as the prose, express national culture. Compatibility of lacunae and realities in Turkmen and Uzbek national mentality. It is explained that the national spirit and national character are ideologically expressed in the work of every artist.

*Key words:* Supra, Belles-lettres, folklore, language, national culture, national spirit.

**НАЦИОНАЛЬНЫЙ ЦВЕТ И СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ В ТВОРЧЕСТВЕ  
МАХТУМКУЛИ, ГАФУРА ГУЛАМА И АНВАР СУЮНА**

*Аннотация.* В статье выражается национальный колорит в стихах Махтумкули Фирог'и и в прозе Гафур Гулам и Анвар Суюн. Совместимость лакун и реалий туркменского и узбекского национального менталитета. Поясняется, что национальный дух и национальный характер идеологически выражаются в творчестве каждого художника.

*Ключевые слова:* Супра, Художественная литература, фольклор, язык, национальный колорит, национальный дух.

Dunyoda shunday insonlar bor-ki, bu yorug' olamni tark etishi bilan ismi ham o'chadi.

Yana shunday insonlar borki, ma'lum bir vaqtgina nasli sabab ismi yodga olinadi. Yana shunday insonlar borki, ham nasli sababli ham ijodiy merosi mangu yashaydi. Garchand jismonan o'lsada ruhan barhayotdir. Ijodkorning ijodiy merosi xalq orasida doim yashayveradi.

Ijodning turi ko'p. Bunday ijod turidan biri adabiyot. Badiiy adabiyot bilan oshna qalb sohiblari adabiyot vakillaridir. Adabiyot vakillari so'z orqali inson psixologik ruhiyatini, xarakterini va eng muhimi qalbni o'rganadi. Noyob ijod sohibi purfikir ijodkorning ijodi qalblarga huzur bag'ishlaydi. Adabiyot insonning nozik qirralarini o'rganadi va o'rgatadi.

Shuningdek, qalb-qo'rini qog'ozga tushirib, millatga va millatlarga ma'naviy ozuqa bergan turkman shoiri Mahtumquli Firog'iy Yaratganning buyuk ne'matidan bahramanddir.

Bugungi kunda ham xalq uchun madaniy-ma'naviy ozuqa bag'ishlab kelmoqda.

Maxtumquli Firog'iy turkman shoiri va mutafakkiri bo'lib, Otasi Davlatmamat Ozodiy ismli kishi bo'lib, Turkmanistonda ziyolilaridan bo'lgan. Dastlab Maxtumquli Firog'iy Idrisbobo madrasasida, keyinchalik Buxoroning Ko'kaldosh, Xivaning Shergoziy madrasalarida tahsil olgan. Nizomiy, Firdavsiy, Fuzuliy va Navoiy kabi mashhur shoirlar ijodidan ilhomlanganligi

yaqqol sezilib turadi. Mahtumquli Firog'iy bir qancha lirik she'rlar, lirikepik dostonlar, g'azal va muhammaslar yozgan. Bizgacha uning lirik, falsafiy, pandnasihat xarakteridagi o'n ming misradan ortiq she'rlari yetib kelgan. Maxtumquli Firog'iy she'rlarida turkman xalqining hayoti, urf-odatlar, o'z davrining muhim ijtimoiy-siyosiy vaziyatlari yoritilib berilgan. She'rlariga Qur'onning mazmuni asos qilib olingan. Xalq dardini ifoda qiladi. Bu dunyo tashvishlarining o'tkinchi ekani va haqiqiy dunyo g'amini chekishga undaydi. Shuningdek shoirning ichki kechinmalari teran ifoda etilgan. She'rlarida turkman xalqini birlashishga chaqirgan. Ular o'rtasidagi nizo va janjallarni tugatishga uringan Taka, Yovmut, Ko'klang, Yozir va Alili kabi urug'larning ahilga da'vat etadi. Urug'larning keltirilishi o'zbek ijodkorlaridan Anvar Suyunning "Eshmonbek" qissasida "Tuyoqli, O'raylar, Tulkichi, Xitoyi, Mitanlar, Laqallar, Cho'potlar, Kesamirlar, Merkitlar, Yovmitlar, Qang'lar va Oyinlilar"[2:128 b] kabi urug'lar keltirilishi o'xshashlik jihatlari sezilib turadi. Yovmit urug'ining keltirilishi ikki ijodkorda ham keltirilishi tarixiy ildizimiz Yovmit urug'i misolida ko'rsak bo'ladi. Millatlar bog'liqligi milliy kolorit jihatdan o'xshashlik borligidir.

Mahtumqulining ishq-muhabbat, o'tkir falsafiy mohiyat, hayot va o'lim, mavzusidagi she'rlarining ohangdorligi, go'zal insoniy fazilatlar shuningdek, odob-axloqqa oid she'rlarida islomiy hamda tasavvufiy qarashlar o'z ta'siri yaqqol sezdiradi. "Bu naqldir, odamzod..." she'rida esa ko'p qirrali milliy kolorit aksini topgan ko'rib chiqamiz:

Yaratgan qudratidan tish bilan dahar berdi,

So'zlamoqqa so'z ila dahanda zabon berdi.[2, B. 128]

Bu baytdan ko'rinib turibdiki, Alloh buyuk zot ekanligi va buyuk zot mo'jizasi bilan falakni, vaqtni va taqdirni berdi. Ikkinchi misrasida yaratgan ijozati bilan faqat insonga nutq va zabol berganligini aytayapti. Hayvonlarga berilmagan aql va nutq insonga berilgani aytilyapti.

So'z faqatgina Alloh tomonidan insongagina berilgan ne'mat ekanligi, shuningdek, shukr qilishga ishora qilyapti.

Ko'ngling ketdi har yona, turding oyog'ing yurdi

Bilding yaqin-yotni, ko'zing dunyoni ko'rdi,[1, B. 36]

Bu baytda esa, turkman millatiga xos jihatigina emas, balki barcha millat va elatlarga xos xarakterli tushunchani bergan. Ko'ngil va nafsni berdi, shu ikkisi orqali turding, yurding deyapti.

Nafs orqali shaxsiy manfaatlar to'qnashuvidan senga yaqin va begona insonlarni bilding, yaxshi-yomonni, hayot achchiq-chuchugini bilganligimizni aytyapti.

Yetti-sakkiz yoshingda otang mullog'a berdi.

O'qib Qur'on – kitobni, ulg'ayding – o'nga kelding.[1, B.36]

Islomiy davlatlarga xos umumiy milliy koloritni badiiy yo'sinda namoyon qilgan.

Qur'onni bilish orqali hayotiy va haqiqatni anglading. Umuman olganda lirik asari mazmuni inson boshidan o'kazadigan voqeyilikni islomiy nuqtayi-nazardan ochib bergan. Vaqting borida umringning qadriga yetish kerakligini aytyapti. Shoir she'rlarida shariat va tasavvufiy tushunchalar keng ma'noda o'rin egallagan.

Mahtumquli ijodida sodda va samimiylik ko'rinib turibdi. Shoir she'rlarini kitobxon osongina tushunib oladi. Turkman xalqining milliy xosligi ham o'z aksini topgan. "Turkmanning" she'rida turkman xalqining geografik joylashuvi, tabiati va boshqa jihatlari yoritib berilgan. Pari misoli bo'lgan go'zal qizlari va mard yigitlarini Turkmanning she'rida aytib o'tadi. Haqqa bo'lgan

muhabbat, xalqiga bo'lgan muhabbat va Vatanga bo'lgan muhabbati zamirida milliy koloritni aks ettirmoqda. Rang-barang gullari, rayhonlari, Bek, to'rasi, Go'ro'g'lidek xalq og'zaki ijodi borligini baralla kuylaydi. Lirik she'rlarida realiyalar, lokal va milliy koloritga xos jihatlarni ifodalaydi. She'rlarida milliy koloritga oid tasvirlar ko'p uchraydi, shulardan birini ko'ramiz.

Bir sufrada tayyor qilinsa oshlar

Baland bo'lar baxt-iqbol turkmaning [1, B. 36]

Sufra – bu oshxonada xamir qilishda ishlatiladigan milliy buyum bo'lib o'zbek millatining xamir qilishda ishlatadigan “Supra” buyumi aytilyapti. Yosh nosirimiz Anvar Suyunning “Bolalikning so'ngi kuni” asarida ham milliy buyumimiz “Supra” qo'llanilgan.

Masalan: – Pechga o'tin qalab, supra yozib xamir iylayotgan xotini qiya burildi.[5: B. 37] Eshboy qizil uyiga kelganda xotini xamir qorishi tasvirlangan. Xalqmizning go'zal urf-odatlar[7:382]dank ko'rinib turibdiki, o'zbek va turkman xalqlari qardosh va har jabhada nihoyatda bir-biriga yaqindir. Yuqoridagi tasvirlar ifodalanishi ijodkorning milliy mentalitetni nozik qirralarini ochib beradi. She'rlarida suyujezlarning o'sib borishida ham tasvirning o'rni beqiyos. Lokal tasvir she'rlarida asosli darajada tasvirlangan. Ifodaning haqiqiyliigi milliy bo'yoqdorligini orttiradi. “Nuqsona kelgay” she'rida koloritning mezonlaridan biri urf-odat haqida shunday deydi.

Urf-odat yo'qoldi, bir xasb qoldi.

Yamon yalovlandi, yo'l kesib qoldi.

Shariat yo'q bo'lib, taassuf qoldi,

Zamonaning zavqi shaytona kelgay.[1, B.76]

She'rdan anglashiladiki, urf-odatlar yo'qolganidan shoir tashvishda ekani, milliy taomlardan xasb qolgani haqida aytyapti. Yomonlar insonlar o'sha davrda ham borligi va ular insonlar yo'liga to'siq bo'lishi, shariat nizomlari yo'qligi hamda faqatgiga afsuslar qolgani va zamon zavqiga shaytonlar kelganini aytyapti. Shoir ko'ngli milliy koloritni istashi shu to'rt qatorda ifodalab beryapti.

Mahtumquli she'rlarida turkman xalqining koloriti keng ma'noda boyitib borilgan.

Kolorit har bir millatning urf-odatida, so'zlashuv nutqida, xarakterida, xalq hayotining madaniy-moddiy hayot sharoiti, ma'naviy turmush tarzi, tabiat tasviri, dini, adabiyoti va san'ati hamda boshqa maxsus narsalar haqidagi tasavvurlari, tushunchalari baralla kuylangan. Koloritni Mahtumquli she'rlarining ko'p joyida uchratish mumkin. Mahtumquli asarlarida turkman millatning tarixi madaniyati ko'rsatiladi. Mahtumquli ijodida tarixiyliigi madaniyatidan xalq og'zaki ijodi bo'lgan Go'ro'g'li dostoni ham keltirilgan:

Ul mardning o'g'lidir, marddir padari.

Go'ro'g'li qardoshi, sarxushdir sari. [1, B. 36]

Misrada keltirilgan Go'ro'g'li doston milliy asrlaridan biri ekani ifodalangan.

Milliy kolorit – har bir millatning o'zligini saqlaydigan va sha'nini ulug'laydigan urf odatdir. Mahtumquli turkman koloritni o'z asarlarida mujassamlashtirgan yozuvchilardandir.

G'afur G'ulum she'rlarida ham inson umri va qadri haqida chuqur falsafiy ma'no yotibdi.

Biz Mahtumqulining “Bu naqldir, odamzod...” she'ridan anglashilgan umr qadri tushunchasini G'afur G'ulomning “Sog'inish” she'ridagi quydagi misralari bilan solishtirishimiz mumkin.

Aziz asrimizning aziz onlari  
Aziz odamlardan so‘raydi qadrin.  
Fursat g‘animatdir, shoh satrlar-la  
Bezamoq chog‘idir umr daftarin.[3, B.136]

O‘g‘liga yozilgan bo‘lsada odamlarga har lahzani, har onni vaqtida qadriga yetishga undayapti. Umrni mazmunli va yaxshi fazilatlariga boyitish kerakligini aytyapti. Ikki ijodkor she‘rida ham quyidagilarga e‘tibor qaratsa bo‘ladi:

- insonga vaqt qadriga yetish kerakligi aytyapti
- umrni mazmunli amallar bilan o‘tkazishga undayapti

qanday ma‘noda bo‘lishidan qat‘iy nazar insonlarni yaxshilikka chorlayapti. Har ikki shoir xalq dardini she‘r qilgan. Xalq dardi esa, ezgulikdir.

Xulosa qilib aytganda, Mahtumquli Farog‘iyning she‘rlarini tushunish oson. Ayniqsa, islomiy davlatlarning milliy ruhiyati yaxshi chizilgan. She‘rlarida hayotiy tajribalar natijasidan kelib chiqqan qimmatli fikrlarning xulosasini ko‘ramiz.

#### REFERENCES

1. Махтумқули – Фироғий М.32/ сайланма Махтумқули – Фироғий. Т.: “Ўзбекистон”, 2008. 36
2. Husniddin, Suvanov. "ESHMONBEK" QISSASIDA MILLIY RUH TALQINI." BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI (2022): 126-131.
3. Гафур Гулом. Мукаммал асарлар тўплами: 12 томлик таҳрир ҳаяти:
4. С.Азимов. – Т.: “Фан” 1984 й.
5. Анвар Суюн. “Эшмонбек”. – Тошкент: Академнашр, – 2015. – 56-бет.
6. А. Суюн. Ғўбдинтоғ ҳикоялари. – Тошкент: Академнашр, – 2005. – 37 б.
7. Suvanov H. N. et al. Kolorit ijodkorning va xalqning milliy qirralarini ochib berguvchi omildir //Science and Education. – 2023. – Т. 4. – №. 6. – С. 962-965.
8. Husniddin Norkulovich Suvanov Termiz State University Teacher Uzbekistan ARTISTIC INTERPRETATION OF NATIONAL COLOR IN PROSE OF UZBEK YOUNG PEOPLE 28.02.2023.
9. Sultonqulova, F. (2024). USMONI AZIM IJODIDA XALQ QO'SHIQLARINI IZODA ETISHI HAQIDA. Zamonaviy fan va tadqiqotlar, 3 (2), 282–285. <https://inlibrary.uz/index.php/science-research/article/view/30754>
10. Sultonqulova, F. (2020). Metaphorical images in Osman Azim poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 537-539.
11. Sultonqulova, F. (2021). Metaphors of colors in Usman Azim poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 02 (94), 350-353